

#Bobur_tavalludining_541_yilligi

MILLIY MA'NAVIYATIMIZNING BEBAHO GAVHARI

Buyuk davlat arbobi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur jahon tamaddunida munosib iz qoldirgan ajdodlarimizdan biri sanaladi. Boburning hayoti, faoliyati va merosini o'rganish XVI asrning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, bu qutlug' ishni mutafakkirning o'zi "Boburnoma"da boshlab bergan desak adashmagan bo'lamiz.

O'rta asrlar Sharq Renessansi rivojiga ulkan hissa qo'shgan Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidan ilimga chanqoq bo'lib, o'z tengdoshlari orasida ajralib turgan shaxs bo'lgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi.

Bobur o'zbek adabiyotida o'zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan, feodal guruhlarining boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to'g'ri kelgan edi. U katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham tashlab qoymagan. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari "Boburnoma"dir.

Uzoq yillar davomida G'arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari "Boburnoma" mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko'rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim N.Vitsen, angliyalik olimlar J.Leyden, V.Zrskin, R.Koldekot, A.Beverej, T.Albot germaniyalik Yu.Klaynrat va A.Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R.Art va N.Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim B.Gromon, afg'onistonlik olim A.Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir.

Ma'lumki, o'tgan asr davomida Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o'rganish va ommalashtirishda O'zbekiston, Tojikiston, Rossiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX–XX asrlar davomida G.Ker, N. Ilminskiy, O.Senkovskiy, M.Salye, P.Shamsiyev, S.Mirzayev, V.Zohidov, Y.G'ulomov kabi olimlarning sa'y-harakatlari bilan "Boburnoma" bir necha bor rus va o'zbek tillarida chop etiddi, ularga so'zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma'naviy mulkiga aylantirildi, uning she'rlari ham bir necha bor nashr etildi.

Mustaqillik yillarida mutafakkir bobolarimizning boy ma'naviy-ma'rifiy merosini har tomonlama o'rganishga e'tibor tubdan kuchaydi. Shu jumladan, Bobur hazratlarining ijodini teran tahlil va tadqiq etish imkoniyatlari nihoyatda kengaydi. O'tgan davrda "Boburnoma", "Mubayyin" huquqiy asari, Boburning she'riy devoni qayta-qayta chop etildi. Ushbu asarlar talqiniga bag'ishlangan kitob va risolalar, ilmiy-ommabop maqolalar muntazam e'lon qilinmoqda.

Boburshunos Zokirjon Mashrabov tashabbusi bilan 1992 yilda ta'sis etilgan Bobur nomidagi Xalqaro jamoat fondi tomonidan e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tgan yillar davomida Andijonda Bog'i Bobur majmuasi hamda Bobur Mirzoning ramziy maqbarasi barpo etildi. "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi tashkil etildi. Bundan tashqari, Bobur va boburiylar hayoti va ijodini o'rganish, keng targ'ib etish bo'yicha yurtimizda, qator xorijiy davlatlarda juda ko'p tadbirlar, xalqaro anjumanlar o'tkazildi, yangi- yangi kitoblar nashr etildi, hujjatli filmlar yaratildi. Bobur xalqaro mukofoti ta'sis etildi. "Bobur va dunyo" jurnalining tashkil qilingani madaniy hayotimizda katta voqea sifatida e'tirof etildi.

Keyingi yillarda fond ko'magida bobokalonimiz ilmiy-adabiy merosi milliy ma'naviyatimizning bebaho gavhariga aylangan "Boburnoma" bir necha marta qayta nashr qilindi. Ushbu asarning krill va lotin alifbolardagi tabdili, shuningdek, Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asari fors tilidan tarjima qilinib chop etildi. Boburshoh va Xumoyun Mirzoning hayoti va faoliyati bayon etilgan Xondamirning "Xabib us-siyar" asari, turli tillarda yaratilgan "Gulbadan", "Andijon shahzodasi", "Bobur – yo'lbars", "16 asr bunyodkori" nomli kitoblar o'zbek tiliga tarjima qilinib, kitobxonlarga taqdim etildi.

"Zahiriddin Muxammad Babur. Baburidi. Bibliografiya" nomli yirik kitob, "Zahiriddin Muhammad Bobur xazinalari" ruknida "Mubayyan va nasriy bayoni", "Risolai Volidiyya" nazmiy tarjimasini va sharhi" asarlarining chop etilganligi, ayniqsa, "Bobur ensiklopediyasi"ning yaratilganligi, Bobur Mirzoning olti jildlik "Kulliyot"i chop etilganligi o'zbek boburshunoslarining katta yutuqlaridan bo'ldi.

Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Zokirjon Mashrabov boshchiligida o'tgan davr mobaynida ko'hna tariximizni chuqur o'rganish, Bobur va boburiylar yaratgan boy ilmiy-madaniy meros namunalarini Vatanga olib kelib, ilmiy iste'molga kiritish, zaminimizdan yetishib chiqib, xorijda umrguzaronlik qilgan buyuk ajdodlarimiz qabrlarini ziyoratgohlarga aylantirishga qaratilgan ezgu va xayrli ishlar olib borilmoqda. Bobur izidan dunyoning 40 ziyod mamlakatlari bo'ylab ilmiy safarlar uyushtirildi. Natijada ko'plab yangi-yangi manbalar qo'lga kiritildi. Ulardan olingan nusxalar "Bobur va jahon madaniyati" muzeyidan o'rin oldi. Hozirda muzeyda mingga yaqin noyob qo'lyozma asarlar va nodir kitoblar, qimmatli manbalar saqlanmoqda.

Prezidentimizning 2023 yil 25 yanvardagi “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori fond faoliyatini yanada yuqori bosqichga ko‘tarishda muhim dasturilamal bo‘ldi. Ayni paytda mutaxassislar, olimlar tomonidan xalqaro ilmiy Boburshunoslik elektron platformasini yaratish ishlarining birinchi bosqichi yakuniga yetkazilib, www.baburid.uz sayti o‘z faoliyatini boshladi. Mazkur platformaning yaratilishi nafaqat Bobur Mirzo ixlosmandlari, boburshunos olimlar va tadqiqotchilar uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Muxtasar qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini o‘rganish bo‘yicha qilingan har qanday ezgu amal, bu borada nashr etilgan har bir kitob – Bobur shaxsini, Bobur hayoti va ijodini yanada teran bilish hamda anglash uchun ochilgan yangi yo‘l va bu yo‘lda qo‘yilgan qutlug‘ qadamdir.

Shohistaxon NURMATOVA
Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi direktori,
Respublika “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a‘zosi